

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi

adabiyotshunoslik kafedrası

448–guruh bitiruvchisi Tillaboyevava Zamiraning

**“HOZIRGI O‘ZBEK LIRIKASIDA QUYOSH
OBRAZINING BADIY TALQINI”**

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

A.Abdurahmonov

Farg‘ona - 2013

Bitiruv-malakaviy ish kafedraning 2013 yildagi
.....- yig' ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A.Sabirdinov,
Filologiya fanlari doktori.

Taqrizchi:

S.Mirzayeva,
Viloyat IIM o'qituvchisi.

Mundarija

Kirish.	3
1-bob. O‘zbek she’riyatida quyosh obrazining tadriji.	
1. Quyosh obrazi talqinining xususiyatlari.....	6
2. Mumtoz adabiyotimizda quyosh obrazining ramzlari.....	12
2-bob. XX asr o‘zbek lirikasida quyosh obrazining g‘oyaviy-estetik ahamiyati	
1. XX asr boshlari she’riyatida quyosh obrazining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.....	21
2. Hozirgi o‘zbek lirikasida quyosh obrazining g‘oyaviy-estetik xususiyatlari.....	31
Xulosa.....	48
Adabiyotlar.....	50

KIRISH.

Masalaning qo‘yilishi va o‘rganilishi.

Mustaqilligimiz o‘zining samaralarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma‘naviy asoslaridan kelib chiqadigan ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san‘at, umuman ma‘naviyatning ahamiyati kattadir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, “...ma‘naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak.”¹ Darhaqiqat, inson omili adabiyot uchun yetakchi xususiyatga ega.

Darhaqiqat, mustaqillikka erishganidan so‘ng yurtimizning barcha jabhalari qatori adabiyotshunoslik sohasida ham ma‘naviy boyliklarimizga yangicha zamon ruhida nazar solish imkoniyatini, shuning barobarida ma‘suliyatini ham yukladi. Negaki, sobiq sho‘rolar mafkurasi hukmronlik qilgan kezlari milliy adabiyotimizga ularning qiziqishlariga mos keltirish nuqtai nazaridan bir yoqlama, aniqrog‘i sunhiy qarashlar hukm surib kelgan edi. Qator-qator ma‘naviyatimizning buyuk darg‘alari hisoblangan mumtoz adiblarimizning olamshumul asarlari zararli topildi. Xalqning o‘rganishiga mon‘elik qilindi. Mumtoz madaniyatimizning negizini tashkil qilgan tasavvufiy qarashlarning o‘zining bosh mohiyati sifatida ijod qilgan Yassaviy, So‘fi Olloyor, Huvaydo singari adiblarimizning asarlarini o‘rganish taqiqlandi.

“Moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrlidir” deya aytilgan Abdulla Qodiriyning hikmatli so‘zlari qanchalar to‘g‘ri ekanligini davrlar ko‘rsatib turibdi. Garchi shunday ekan adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri ham aynan ana shu moziyning mohiyatini bugungi kun uchun, yosh avlod uchun mufassalroq ochib berish va ularning ma‘naviy kamolotlarida, komil shakllanishlarida ko‘mak berishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu bitiruv-malakaviy ishimizga o‘zbek adabiyotshunosligida hali alohida tadqiqot obyekti qilib

¹ Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008.–B.29.

olinmagan o‘zbek she‘riyatida quyosh obrazining badiiy talqini mavzusini tanlab oldik.

Ma‘lumki, she‘riyat, avvalo insonga ma‘naviy nur bag‘ishlovchi ruhiyatini yorug‘likka eltuvchi mo‘jizadir. Bunda shoir o‘zining ijodida turlicha obrazlarga murojaat etadi. E‘tibor qilinsa, bu obrazlar orasida quyosh obrazining o‘ziga xos salmoqli xususiyati mavjud. Har qaysi davrning har qaysi shoiri ijodiga nazar tashlamaylik ularda albatta quyosh obraziga murojaat etganligini kuzatamiz. Bu murojaat shakli shoirning butun ijodiy yo‘sinini belgilab bera oladigan muhim omil sifatida ko‘zga tashlanadi. Ularda quyosh obrazi insonni komillik, ezgulikka eltuvchi ma‘rifat singari porlab turganligi namoyon bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotimiz quyosh obrazi xususida olib borilayotgan ilk tadqiqot bo‘lganligi bois o‘zbek adabiyotshunosligida e‘tiborli alohida tadqiqotlarni uchratolmadik.

Shunday qilib, bitiruv-malakaviy ishimizda o‘zbek she‘riyatida quyosh obrazining badiiy talqinining adabiyotimizning mumtoz davridan boshlab tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Dastlabki bobning “Quyosh obrazi talqinining xususiyatlari” deb nomlangan faslida quyosh obrazning genezisi va uning badiiy adabiyotda aks etishi masalalariga bag‘ishlanib, obrazning ma‘naviy hayotda aks etishi va badiiy adabiyotga ko‘chish omillarini tahlil etishga jazm etamiz. Ilk diniy, e‘tiqodiy obrazlarga ko‘chgan quyoshning tabiiy xususiyatlarini aniqlab olishga, shu orqali badiiy adabiyotdagi quyosh obrazining funksiyalarini belgilab olishga intilamiz.

Bobning ikkinchi faslida mumtoz adabiyotimizning Navoiy va uning zamondoshlari ijodida quyosh obrazining xususiyatlariga e‘tibor qaratamiz. Ayniqsa, bu xususdagi Mir Alisher Navoiyning she‘riyatiga murojaat qilamiz. Mumtoz she‘riy san‘atlarda quyosh obrazining jozibali ishtiroki xususida to‘xtalamiz.

Ishning asosini tashkil etuvchi ikkinchi bob 2-bob “XX asr o‘zbek lirikasida quyosh obrazining g‘oyaviy-estetik ahamiyati” deb nomlanib, u ham ikki faslga ajaratiladi. Bobning birinchi fasli bo‘lgan “XX asr boshlari she‘riyatida quyosh obrazining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati”da quyosh obrazining XX asrning boshlari, xususan she‘riyatimizning tubdan yangilanish davri bo‘lgan 20-yillaridagi badiiy talqini masalalariga bag‘ishlaymiz. Bunda quyosh obrazining mumtoz adabiyotdagi farqli ramziy ifodaviy ahamiyatlari xususiga to‘xtalib, Usmon Nosir, Cho‘lpon va Oybek singari davrning zabardast shoirlari ijodi misolida fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz.

“Hozirgi o‘zbek lirikasidada quyosh obrazining g‘oyaviy-estetik xususiyatlari” deb nomlangan so‘nggi faslda hozirgi o‘zbek she‘riyatidagi quyosh obraziga murojaat shakllarini tadqiq etamiz. Faslda “Turg‘unlik yillari” o‘zbek she‘riyatidagi quyosh obrazining badiiy ifodaviy ahamiyatining siyosiy motivlarda o‘ta chegaralanib qolishi va nihoyat mustaqillik arafasidagina o‘zining obraz sifatidagi an‘naviy murojaat shakliga qayta boshlashi va chuqur ma‘naviy-mahrifiy ifodaviy ahamiyatining kengaayib borishi masalalarini yoritishga harakat qilamiz.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishimizdan kelib chiqib tadqiqotimizga umumiy xulosalarimizni keltiramiz.

II. Asosiy qism.

1-bob. O‘zbek she‘riyatida quyosh obrazining tadriji.

1. Quyosh obrazi talqinining xususiyatlari.

Yorug‘ olamning yaralishi quyosh bilan bog‘liq bo‘lgan fizik hodisadir. Quyosh nuri tufayli o‘an zaminimizda ilohiy mo‘jiza hayot mavjuddir. Odamzod o‘z tafakkuriga ega bo‘la boshlagan davrdanoq quyoshdan ilohiylikni anglashadi. Inson dunyoni anglash bosqichlarida quyoshni iloh sifatida qarashlar ham ba‘zi xalqlar dinida aks etdi. Bunga misol tariqasida qadimgi Misr madaniyatini keltirishimiz mumkin. Ma‘lumki qadimgi misrliklar bosh xudo maqomida quyoshga sig‘inganlar. Ra nomi bilan atalgan bu ilohga turli qurbonliklar keltirilgan. Shunday madaniyatni Amerika qit‘asidagi hindularning ink qavmlarining Chichen Itsadagi quyosh marosimiga bag‘ishlab qurilgan piramidasimion obidalarida ham ko‘rish mumkin.

Quyosh zulmat aro o‘zining nurlarini sochib olamga nur orqali hayot baxshida etganligi muqaddas kitoblarida aksini topgan. Ilk muqaddas kitoblardan biri sanalgan zardo‘sh tiylarning “Avesto” kitobida ham quyoshga nisbatan hayotning asosi sifatida qaraladi. Yorug‘likning asosiy manbasi sifatida qaralgan quyoshda ilohiylik bor ekanligi e’tirof etiladi. Shuning uchun ham bu muqaddas kitobda olamni yorug‘lik kuchlari tufayli hayot mavjud ekanligi uqtiriladi. Unda aytilishicha, olamning dastlab yaralishida yorug‘lik kuchlari Axura Mazda sharofati tufaylidir. Uning bunday ezguligiga yovuz Axriman boshchiligida zulmat kuchlari qarshichiqadilar. Ular orasidagi kurash uch davrda bo‘lib o‘tadi. Bunda oxir oqibat ezgulik–yorug‘lik kuchlari g‘alaba qozonadilar.

Nasroniylarning muqaddas kitobi “injl”da ham Yaratguvchining olamni yaratishining to‘rtinchi kunida quyoshni yaratganligini va u orqali zaminga nur taralganligi keltiriladi.²

² “Injl” (Vetxiy zavet)”

Insoniyat o‘z ongini anglashining dastlabki onlaridan nurga e‘tiborni qaratgan, undagi ilohiylikni anglab yetishga intilgan.

Muqaddas kitoblarda ham Olamning yaratilishi avvalida Nur yaratilganligi aytiladi. Shundan so‘ng uning quvvatidan bahramand bo‘lib barcha borliq, jonzodu o‘simliklar yaratilganligi ta’kidlanadi.

Ma’lumki, nur manbalaridan asosiysi quyosh bo‘lib u zaminni yoritadi, zulmatni nurafshon etadi. Uning nuridan akslangan oy esa o‘z shuhlasi bilan tun qo‘ynini oydinlashtiradi. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq quyoshda ilohiylik mavjudligiga ishonib, unga sig‘inishgan.³ Quyoshga qadimgi dunyoning Misr, Yunon, Rim, Hind, Fors davlatchiligi davrlaridanoq mavjud bo‘lganligi turli manbalar orqali yetib kelganligini ham qadimdanoq insoniyatning nurga ma’naviy jihadan ham ehtiyoji nechog‘lik ekanligidan dalolatdir. Bu jarayon deyarli barcha madaniyatlar tarixida kuzatiladigan holatlar sirasidandir.

Nur ya’ni yorug‘likning asosiy manbai bo‘lgan Quyoshga umid va ishonch ramzi sifatidagi munosabat shakllanib kelgan.

Nur borliqdagi jismlarni zulmatni yoritib ko‘rish imkonini beradi. Nur barcha jonzodlar intiluvchi manbadir. Chunki, butun nabodot va hayvonot nurdan quvvat olib yashaydi.

Nur barcha muqaddas kitoblarda olamning yaratilishida birlamchi deb e’tirof etiladi.

Qadimgi dunyo tarixida quyoshga hattoki, inson qiyofasidagi xudo sifatida qarash mavjud bo‘lgan.⁴ Keyinchalik unga nisbatan umid va ishonch ramzi sifatida munosabat shakllanib kelgan.

Nur manbalarining asosiysi Quyosh bo‘lganligi sababli badiiy adabiyotda ma’naviy nur manbasi obrazi sifatida ham talqin etiladi.

³ Qarang: Gegel. Sochineniya. Tom 8, M.: 1935.S:140-148,164-165, 231-234

⁴ : Gegel. Sochineniya. Tom 8, M.: 1935. str-164-165.

“Quyosh – barcha xalqlarga ma’lum bo’lgan eng qadimgi kosmik ramz; hayot manbai, yoruqlikni bildiradi. Quyosh ramzlari bilan ustuvorlik, hayot yaratish, faollik, qahramonlik negizi, hamma narsani bilish kabi xususiyatlar bog‘lanadi.”⁵

Badiiy adabiyotda quyosh ma’naviy nur manbasi sifatida munosabat mavjud.

Tasaffuv tahlilotida ham quyoshga ilohiylikning manbasi sifatida qaralgan. Shuning uchun ham tasavvufdagi ranglarning ramzidagi qizil rang Allohni ifodalaydi. Qizil esa tuganmas yorug‘lik manbai bo’lgan quyoshga ishora ekanligi ayon bo’ladi.

Allohning yerdagi Rasuli sifatidagi payg‘ambarga esa sariq rang ramzi beriladi, bu bilan quyoshning yerdagi shuhlasi sifatida tushunish mumkin bo’ladi. Ularning ta’sirida esa yerdagi hayot shakllanadi. Yerdagi hayotning sababi sifatida Hizr keltiriladi. U yashil rang ramzida ifodalanadi. Rangshunoslikdan ma’lumki yashil rang ko‘k va sariq rangning qorishuvidan hosil bo’ladi. Ko‘rinadiki, yashilda ham Alloh timsolidagi quyoshning ishtiroki mavjudligiga ishoradir.

Darhaqiqat, zamindagi hayot quyosh faoliyati uning faolligi bilan bog‘liq bo’lgan hodisadir. Quyoshning nurlarining yerga tushishining faolligi yoki nofaolligi tufayli fasllar shakllanadi, qish ketidan bahor keladi, yozdan keyin kuz va yana qish.

Tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyosh ma’naviy hayotda ham o‘zining simvolini, ramzini topa boshlaydi. Maishiy turmushda insonlarning o‘rni, ahamiyati quyoshga nisbat qilib belgilana, atala boshlaydi. Masalan xalqimizdagi oila ahzolarini oilamizning oftobi, quyoshi deyilishi ham ijtimoiy-ma’naviy ahamiyat kasb etadi.

Bularning barchasi badiiy adabiyotda o‘z ifodasini topa boshlagan.

⁵ Qarang: Mingboeva Dilrabo. Timsolar tilsimi. T.: Yangi asr avlodi. 2007, 32-34 bb.

Quyosh obrazining ijtimoiy-ma'naviy hayotga kirib kelishi va ahamiyatidan kelib chiqqan holda badiiy adabiyotda aks etishi ham turlicha ko'rinishlarni olganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Demak, shunga ko'ra badiiy adabiyotdagi quyosh obrazini tahlil etadigan bo'lsak, uni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

1. Quyosh obrazining e'tiqodiy manbaa sifatida talqin etilishi.
2. Quyosh obrazi ijtimoiy turmushdagi ma'lum individlarning ma'naviy quvvat manbai sifatida.

Shuningdek, quyosh obraziga murojaatning ikki xil ko'rinishini uchratish mumkin. Bunda 1) quyosh iloh timsolida; 2) Quyosh yor timsolida.

Yor timsolidagi quyosh obrazi mumtoz adabiyotimizda asosan Allohga nisbatan keltirilgan bo'lsa, yangi o'zbek adabiyotida uning funksiyasi o'zgaradi. Ya'ni davrning mohiyatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy-ma'naviy hayotning extiyoji obrazini ifodalash vazifasini bir oz o'zgartirdi. Bunda avval, fan-texnika taraqqiyoti o'lkamizga yetib kelishi va uning ta'sirida ma'naviy hayot, dunyoqarashlarining zamon ruhida shakllanishiga qadar insonlarga faqatgina Allohning shavqati va rahmigina yordam bera oladi xolos, degan tushunchalar ustivor bo'lgan bo'lsa, yangi davrda dunyoqarashi ancha shakllangan zamon kishilari uchun real ehtiyoj aniq va ravshan bo'lib qoladi.

O'lkamizda sho'rolar mafkurasi hukmronligi zo'ravonlik yo'li bilan o'rnatilgandan so'ng hur fikrli kishilar erkinlik zaruratini chuqur his eta boshladilar. Badiiy ijodda quyosh obrazi o'z funksiyasini o'zgartirdi. Endi u Alloh ramzidan ko'ra erk va ozodlik ramzi sifatidagi o'z talqini topa boshladi. XX asrning boshlarda o'zbek she'riyatida erk ramzi bevosita quyosh obrazi orqali talqin etilishi qator yetuk, stehdodli shoirlarning ijodlarida namoyon bo'ldi. Ayniqsa, Usmon Nosir, Cho'lpon, Oybek, Botu, Elbek ijodida o'ziga xos tasvirini topdi.

Oxir oqibat qatag'onlar evaziga so'ndirilgan erkparvarlik g'oyalari XX asrning 40-yillaridan quyosh obraziga sunhiy ravishda yangicha funksiyani

yuklashga hozirlandi. Quyosh obrazi endi sho‘rolar partiyasining ramzi sifatida talqin ettiriladi boshladi. Shuningdek, sho‘rolarning dohiysini hattoki quyoshga tenglab, uning ramzi orqali ifodalashga maddohona urinishlar avj olib kettiki, hattoki quyosh degan tabiiy materiyadan ko‘ra sho‘ro partiyasining “quyoshi” birlamchi ahamiyat kasb eta boshladi ham. Hattoki bolalar she‘riyatiga ham bu g‘oyani singdirishga zo‘r berilishga kirishilib ketdiki, o‘sha davr bolalar bog‘chalaridan boshlab “o‘sha dohiyni” “quyoshga o‘xshagan bobolari” sifatida “majburiy” tanishtirishga zo‘r berilgan edi. (Bularning bari murg‘ak bolakay ongida osmonda nur sochayotgan quyosh “o‘sha dohiy bobo”ning boshlarimikan degan hayolga borishlariga ham sabab bo‘lgan edi.)

XX asrning 60-70- yillar she‘riyatida quysh obrazi insoniy munosablarni aks ettirishda, ijtimoiy-intim munosabatlar mavzusidagi she‘rlardagi ruhiy ehtiyojni to‘ldira oladigan manbaa sifatida yangicha talqinini shakllantira boshladi. Mirtemir, Asqad Muxtor kabi ikkinchi avlod vakillari bilan yangi avlodning Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdieva kabilar ijodida bu obraz o‘ziga xos munosabatga uchradi. Endi sho‘rolarning partiyasining maddoxona she‘riyatining qahramon obrazi emas, balki ijtimoiy turmushdagi individlarning o‘zaro munosabatlaridagi ma‘naviy ehtiyojni qondiruvchi homiy obraz sifatida ko‘rinish ola boshladi. Bu jarayon asta –sekinlik bilan oxir –oqibat jamiyatdagi bu ehtiyojning sabab va oqibatlarini ijodiy laboratoriyalda tahlil qilish orqali tashhisining kashf etilishiga olib keldi. Bu ijtimoiy-individual ehtiyojlar birlashuvi, qo‘shiluv natijasida xalqning asl irodasi gavdalandi. Bu erk edi.

Shunday qilib, XX asrning oxirlariga kelib quyosh obrazi yana erk timsolida gavdalana boshladi. Uning mustaqillikka erishguncha bo‘lgan davrdagi qator she‘rlardagi yetakchi obraz sifatidagi ishtiroki nihoyatda faollashdi. Lirik qahpamon badiiy falsafasi bo‘lmish erk mavzusi quyosh obrazi keng talqin etildi. Buni ayniqsa Rauf Parfi, Halima Xudoyberdieva,

Usmon Azim, Azim Suyun, Shavkat Rahmon kabi qator ijodkorlarning ijodlarida kuzatishimiz mumkin.

Mustaqillikka erishganimizdan soʻng quyoshning ramzi yanada boyidi. Endi u mangu mustaqillik ramzi sifatida ijtimoiy-siyosiy falsafani anglata boshlashi eʼtiborga molikdir. Bundan tashqari ijtimoiy-intim hayot doirasida u vafo, sadoqat ramzi sifatida ham talqin etilishi koʻzga koʻrina boshladi. Buni keyingi avlod vakilari boʻlmish Zebo Mirzaeva, Xosiyat Rustamova kabilar sheʼritida koʻramiz.

Shunday qilib quyosh obrazi oʻzbek sheʼriyatida eʼtiqodiy mohiyatdan ijtimoiy-siyosiy mohiyat kasb etadigan keng talqinli obraz darajasi sari tadrijga ega boʻldi. Dastlab faqatgina yagona – diniy mohiyatnigina oʻzida ifodalagan obraz real hayotiy voqelikdagi real kishilarning ehtiyojlarini oʻzida aks ettiruvchi haloskorlik manbai sifatida talqinga uchradi. Yaʼni eʼtiqodiy doiradan koʻra faolroq boʻlgan ijtimoiy – maʼnaviy hayot doirasiga oʻtdi. Yuqorida koʻrib oʻtilganidek. Bularning bari milliy adabiyotimizning taraqqiyotida oʻzining munosib izini qoldira oldi.

1.2. Mumtoz adabiyotda quyosh obrazining badiiy talqini.

Mumtoz adabiyotimizda quyosh hidoyat nurlari manbai sifatida badiiy talqin etiladi.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda yetakchi g'oyalarni o'zida kasb etgan tasavvuf tahlilotida quyosh obrazi ilohiy qudrat xususiyatlarini ifodalab kelganligi bilan e'tiborlidir. Shuning uchun ham aksar mumtoz shoirlarning ijodlarida quyosh obraziga yaratguvchining sifatida qaralgan.

Turkiy she'riyatning gullab yashnay boshlagan temuriylar davridagi qaysi ijodkorning asarini olmaylik bunga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Mumtoz adabiyotimizda quyosh obrazi turli badiiy san'atlar ifodasida ham muhim obraz sanalgan.

Basdurur ko'nglumda ishqing, yoqma o't,

Kim harorat ul ham o'tcha qilg'usi.

(Alisher Navoiy)

Qaddimni firoq mehnat yo qildi,

Ko'nglum g'amu anduh o'tiga yoqildi.

Holimni sabog'a aytib erdim, ey gul,

Bilmon sanga sharh qilmadi yo qildi.

(Bobur)

Jong'a soldi dahr g'urbat norini,

Ko'z yoshim bo'ldi mo'g'ulning norini,

Bu aroda men degandek bo'lmasa,

Ko'zlay Issiq ko'lu, undin norini.

(Bobur)

Tamsil «misol keltirish» ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat — mantiqiy aloqa ko'pincha

qiyosiy yoʻnalishda boʻlib, ijodkor diqqati ham badiiy tafakkur bilan hayotiy voqelik orasidagi oʻxshashlikka qaratilgan boʻladi.

Boshqacha qilib aytganda, birinchi misrada bayon qilingan fikr hayotiy hodisaga oʻxshatiladi, shoir ifodalayotgan timsollar hayotiy misoldagi narsa yoki tushunchalarga gʻoyatda mos boʻlib tushadi. Jumladan, Navoiyning mashhur

Orazin yopqach, koʻzumdin sochilur har lahza yosh,

Boʻylakim paydo boʻlur yulduz, nihon boʻlgach quyosh

baytida qoʻllangan tamsil sanʼati yulduzlar paydo boʻlganidan soʻng quyosh koʻrinmay qolishi hodisasi bilan birinchi misrada ifodalangan timsoliy ifoda: mahbuba yuzini bekitgach, oshiq koʻzidan yosh sochilishi hodisasi oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslangan. Yor orazi bilan quyosh, oshiq koʻz yoshi bilan yulduz qiyoslanib, birinchi misradagi fikrning yorqin badiiy tasviriga erishilgan. Demak, baytda quyosh obraziasosiy lirik gʻoyani namoyon qiluvchi obraz sifatida badiiy talqin etilmoqda.

Tamsil asosan birinchi misradagi ifodani oʻxshatish yoki dalillash maqsadini koʻzlaydi. Yuqoridagi baytda shoir diqqati oʻxshatishga qaratilgani aniq koʻrinib turibdi.

Shshriyatimizdagi husni tahlil namunalari xilma-xil hayotiy holatlar, tabiiy hodisalarga asoslanadi.

Shoirlar koʻpincha samoviy mavjudotlar holati va harakatini gʻayri tabiiy izohlash yoʻli bilan husni tahlil sanʼatiga xos lavhalar chizadilar. Masalan, quyosh harakatini shu xil tasvirlash vositasida koʻplab chiroyli baytlar yaratilgan.

Quyosh oydek yuzungning hijlatidin

Qochib toʻrtinchi koʻk uzra chiqibtur.

(Lutfiy)

Tushta koʻrmish orazingni zohiran, bir kun yana

Oni istab kechayu kunduz yurur hayron quyosh.

(Gadoiy)

*Oy yuzung nazzorasidin qolur ermish benasib,
Oning uchun kechqurun har kunda yig'lar qon quyosh.*

(Gadoiy)

*Mehr yuz ko'rmay o'chashur, pardadin chiqqach quyosh
Olg'ali qo'yimas sorig' yuzin qaro yerdin uyot.*

(Navoiy)

*Falak mehri bulutdin ko'zga chekmish pardai mushkin,
Magar boqib quyoshim yuziga ko'zi qamoshibdur.*

(Ogahiy)

*Beniqob ul mahliqoni toki ko'rdi, har kecha,
Infiolidin quyosh yer ostida pinhon erur.*

(Ogahiy)

Keltirilgan baytlar mazmuniga diqqat qilsak, quyoshning holati, harakati asosida betakror badiiy lavhalar ifodalanganimi ko'ramizki, ularning har biri husni tahlil san'atining go'zal namunalidir.

She'riyatimizda butun-butun she'riy asarlarni butunisicha tajnisli qofiya asosida bitish an'anasi ham mavjud edi. Iqtidorli shoir Said Ahmad tomonidan 1435—1436 yillarda yozib tugallangan «Taashshuqnoma» asarining ikkinchi nomasi shunday asarlar jumlasidandir. Nomaning e'tiborli tomoni undagi quyosh obrazi asarning markazi obrazi sifatida badiiy talqin etiladi. Nomani to'la keltiramiz:

*Nigoro, oldi ko'nglum yuzung oli,
Qiladur qasdi jon ham ko'zung oli.*

*Otib g'amza o'qin payvasta qoshing,
Yurakim qon qilur payvasta qoshing.*

*Jamoling shamhinikim yondirursen,
Qamuq olamni o'tqa yondurursen.*

*Engingda menglaring mushki xitodur,
Karo zulfung sari bormoq xatodur.*

*Kuyoshdur orazimga Mushtariydur,
Ki jon birla jahoni mushtariydur.*

*Visoling zavqin istab, ey dilorom,
Tan ichra topmadi miskin dil orom.*

*Ko'ngul qushini ishqing qildi shunqor,
Bu gamdin muddaiylar bo'ldi shunqor.*

*Karashma qilmoq ichra qil yarorssn,
Nekim jonimga qilsang qil, yororsen.*

*Aningkim ol yuziida xoli bo'lg'ay,
Qachon fisha qilurdin xoli bo'lg'ay.*

*Ayitsalar sengo g'amzangdii o'q ot,
Oni o'zgaga otma, bizga — o'q ot.*

*Turubturmen o'qung'ning qarshusina,
Otar bo'lsang tutarmen qarshu siyna.*

*Chu tortarmsn qamisha hajr bog'in,
Senga aytay ko'igulda har ne borin.*

*Bilursenkim qulupgdurmen kamina,
Karam qil, boqmagil qulning kamina.*

*To'kar har dam firoqing diyda qoni,
Meningdek bor dogi g'amdiyda qoni?*

*Ko'ngulda garchi hajring dog'i bordur,
Valekin vasl umidi dog'i bordur.*

“Alisher Navoiy “Chor devon”larining debochasini quyidagi bayt bilan boshlagan:

*Ashraqt min aksi shamsil kavsi anvor ul-xudo,
Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.*

(ya'ni, haqiqat(hidoyat) nurlari quyosh kosasidan aks etib chiqib kela boshladi, yorning aksini mayda ko'r degan ovoz jomdan sado beradi.)

Navoiy aytganlaridek: bu “sado” —nur ovozi Mulki borliqda haqiqat nurining taralishidir. Buyuk shoirimiz aytgan shu nur taralsagina, mulki borliq ko'zlarimiz oldida namoyon bo'la boshlaydi. Namoyon bo'lgan mulki borliqning har bir unsurida ilohiy jamol yuz ko'rsatadi.”⁶

“Nur sochuvchi *quyosh, oy, sham* kabi yorug'lik manbalariga tabiiy hodisalar *tong, subhlar* bilan teng o'rinda mantiqan ruhoniyl nurga, yorug'likka oid mavhum *vasl, mehr* kabi obrazlar qo'llaniladi. Yoki aksincha *soya (zulmat)*ga oid *tun, shabiston, shom, kecha* kabi tabiiy hodisalar bilan *g'am, hijron* kabi mavhum tushunchalar ham qo'llaniladi:

*Kechakim tiyra kulbamni yorutqay ul quyosh,
Tong emas anjumandek o'lsa kecha noyob shamh.*

⁶ Matnazar Abdulhakim. Nur vasli. Yoshlik, 2010, № 1

*G‘am tuni ul oy xayolidin buzug‘ ko‘nglum yorur,
Go‘shai vayrong‘a basdur partavi mohtob shamh.*

*Tiyra shomi fayz nuridin desangiz yorug‘oy,
Tutqil ul yanglig‘ki tutmish go‘sham mehrob shamh.*

*Ey Navoiy, ul quyosh qo‘yg‘och shabistong‘a yuz,
Rashkdin siymob ashkidek bo‘lur siymob shamh.(320)*

Yoki:

*Olam ichra ul quyosh zohir, vale mendin nihon,
Ey ibodat ahli, qo‘ysam tong emas olamg‘a bosh.*

*Oq uqar o‘tog‘asi chobuk suvorim boshida,
O‘ylakim, xatti ishon aylagay zohir quyosh.*

*G‘am tuni sargashta boshim ham sipehridur mudir,
Anda kavkab zohir o‘lg‘on yuz uza har qatra yosh (301).*

Zulmat panjasidagi oshiq o‘zini o‘rab turgan muhitni yorib chiqishga intiladi. Oshiqning bunday lirik kechinmalari sham vositasida yoritib beriladi. G‘azalda Nur va soya(zulmat) qarama-qarshiligi **sham=>shabiston; subh => kecha** kabi obrazlar she’rning falsafiy mohiyatini ifodalashda xizmat qiladi. Ya’ni sham obraziga qarama-qarshi zulmat(soya)ga ishora qiluvchi yohud uning xususiyatlarini mantiqiy aks ettiruvchi qator obrazlarning qo‘yilishi orqali lirik kechinma namoyon bo‘la boradi: **shabiston, hajr, mahzun, ashk.**⁷

She’rda lirik bayon etilishicha, *jonona (yor) yuzi shamdek bo‘ldi, mehri mashhal* bo‘lganda yonayotgan sham yorug‘ining kuchi ojiz qolib, bilinmay ketadi. Yana

*Ko‘zum yoshniki, yurak qoniga tutosh ko‘runur,
Berur qonimg‘a tonug‘luk, garchi yosh ko‘runur.*

⁷ Abdurahmonov A. Navoiy lirikasida nur va soya. FarDU “Ilmiy xabarlar”, 2012, № 1.

*Labini so'rgali aqlvm junung'a bo'ldi badal,
May ichsa tez o'lur el, sog'da ra' yovosh ko'runur.*

*Shikasta ko'ngluma oz g'am bo'lubturur kulliy,—
Kesak qanoti sovuk qush ko'zig'a tosh ko'runur.*

*Ne kunki gozivig ko'rsam, tutumga ersa, ne tong
Quyoshqa boqsang ko'z yumsa dam quyosh ko'ruiur.*

*Ne rud oqizding ulus qonidingki, tegrangda
Nazarg'a soy toshidek necha boqsa, bosh ko'runur.*

*Mug' eshigin turradek yoi yuzingg'akim, gardun,
Quyosh sinoni chekib tavrida savosh ko'runur.*

*Navoiyning bu namozi ne navh ekin, yo rab,
Ki sajda vaqti ko'ziga ul egma qosh ko'runur.*

Yoki

*Ul pari ko'ngli uchun ruhim asiru zor erur,
Bulhajib toshi qanotsiz qushg'a badraftor erur.*

*Har kecha qon birla jnsmim safhayi. taqvimdek,
Go'yi anjum tirnog'idin sarbasar afgor erur.*

*Kofiri mastedur ul ko'z kim, kamandi zulf anga
Eshibon yonida qo'yg'on rishtai zunnor erur.*

*Baxti uykusidnn afgonlar chokardin go'iyu
Har kecha ko'z yummay anjum to sahar bedor erur.*

*Yangla ko'nglum vasl topti, rahm qil, ey oy, kim,
Tund yeldin yangi butgai yorag'a ozor erur.*

*Qatlima ul ko‘z savodi hayhatidin bag‘rig‘a
Bir qaro tosh bog‘log‘on qon qilg‘uchi xunxor erur.*

*O‘qusam nomangni pechu toblig‘ bexud tanim
Go‘iyokim nomani chirmab yuborgan tor erur.*

*Chun quyoshdek yerga kirgung, ne asig‘, gar yuz quyosh
Masnading toqida har yon shamsayi devor erur.*

*Tirguzub, debsen Navoiy jonig‘a minnat qo‘yan,
Gar sep o‘ltursangki, ul jon birla minnatdor erur.*

Bobur lirikasida quyosh obrazi yor timsolida keltiriladi:

*Ul quyosh mehrini bir zarra manga ko‘rguzmas,
Kavkabi ashk to‘kib bo‘lmas agar garduncha.*

Yoki

*Ne navo o‘zshasin yuziga oftobkim,
Oning zavoli bordiru bu bezavoldur.*

Ko‘rinadiki, mumtoz adabiyotimizda quyosh obrazi e‘tiqodiy qarashlar doirasida o‘ziga xos tadrijiy jarayonni boshdan kechiradi.

Insoniyat tarixida dastlab iloh sifatida, olamning asosi sifatidagi qarashlar keyinchalik diniy, e‘tiqodiy qarashlarda mustahkam o‘rin olishi natijasida badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topdi.

Mumtoz shehriyatimizning asosi hisoblanmish tasavvuf ta‘limotida yor timsolida tasvirlangan Olloh quyosh obrazida badiiy talqin etila boshladi.

Shuningdek, quyosh obrazi mumtoz shehriyatda badiiy sa‘atlarni qo‘llanishida eng faol obrazlar sirasiga kirdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mumtoz shehriyatimizda quyosh obrazining ifoda ko‘lami ma’naviy-e’tiqodiy jihatlari bilan kengaydi, lirik qahramon ruhiyatining badiiy talqinida faol obraz darajasiga ko‘tarildi.

2-bob.

XX asr o‘zbek lirikasida quyosh obrazining g‘oyaviy-estetik ahamiyati.

1. XX asr boshlari she‘riyatida quyosh obrazining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

XX asr keng ma’noda o‘lkamizda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mahrifiy hayotda o‘zgarishlarni olib keldi. XX asr mamlakatimiz tarixida o‘ta keskin siyosiy bo‘hronlar o‘chog‘iga aylangan yurt sifatida tarix sahifasida qolgan.

XIX asrning oxirlarida o‘lkamizning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va Qo‘qon xonligining tugatilib Turkiston general gubernatorligining tahsis etilishi o‘lkadagi siyosiy, ijtimoiy hayot zaylini butunlay o‘zgartirib yubordi.

Shunday qilib, “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida u yangi bir ahnaviy olamga. Ovrupa madaniyati, adabiyoti tajribalariga yuz bura boshladi. Bu hodisa sho‘ro hokimiyati yillarida uzoq vaqt “Russiyaga qo‘shilishning progressiv ahamiyati” tarzida baholanib kelindi. To‘g‘ri, “falokatning sharofati”, deganlaridek, o‘tgan asrning ikkinchi yarsmida xalqimiz boshiga tushgan kulfat, tariximizning “eng kir, qora kunlari” – yurtimizning rus istilochilari tomonidan zabt etilishi oqibatida bu yerga Ovrupa tartib-qoidalarini, fan va madaniyati, adabiyoti yangiliklari ham kirib kela boshladi. Biroq, bu hodisa faqat Rusiya tomonidan bosib olingan Turkiston xalqlari hayotida emas, deyarli barcha SHarq mamlakatlarida, G‘arb mustamlakalari qo‘li yetmagan yurtlarda ham sodir bo‘ldi. Jahonning biror hududida ma’naviy va malaniy hayotda, ilm-fanda, adabiy tafakkurda paydo bo‘lgan yangiliklarning o‘zga hkdkdlarga tarqalishi qonuniy, tabiiy holdir. Jahonga yuz ochgan, yangiliklarga tashna, o‘zgalarning ijodiy tajribalaridan bvhramand bo‘la olga qobil yurt farzandlari bor millatgina tariqqiy etgan xalqlar, millatlar safida yura oladi. O‘zbek xalqi necha ming

yillik tarixi davomida ko‘p o‘zgarishlarning xam ilg‘or tajribalaridan bahramand bo‘lib, yagshi ilmiy, badiiy kashfiyotlar yaratishga, o‘z navbatida, boshqa xalqlar madaniyatiga ta’sir ko‘rsatishga ham qodir xalq ekanligini isbot etgan. Ayni zamonda jahon xalqlari taraqqiyotidan uzilib, o‘z qobig‘ida o‘ralib qolishning oqibati qanday bo‘lishini ham ko‘rgan.

Asrimiz boshlarida xalqimiz tarixida yangi davr – Milliy uyg‘onish, o‘zlikni anglash harakati boshlandi.

Asr boshlarida Rus chorizmining o‘rniga omi xalq ommasidan foydalanib hukumatga kelgan sho‘rolar ham imperiyaning bosqinchilik bilan o‘ziga qo‘shib olgan yurtlarga ho‘jayinlik qilish kayfiyatini davom ettirdilar.

“Umuman , Sharq mavzuiga 20-30-yillar o‘zbek she’riyatida katta e’tibor berildi va sho‘ro mafkurasidagi shoirlarda bu masalaga deyarli bir qolipda yondashuv shakllandi. Ya’ni, sho‘ro Sharqi qalamga olinar ekan, u ko‘pincha yo hozirgi xorijiy Sharq bilan yohud o‘tmishdagi Sharq bilan “qiyoslanadi”. Sho‘ro Sharqi ozodlik mayog‘i-yu, baxt chirog‘i bo‘lib ko‘klarga ko‘tariladi, hozirgi xorijdagi va o‘tmishdagi Sharq esa, insoniylikdan mahrum xurofot o‘chog‘i tarzida ko‘rsatiladi.”⁸

Sho‘rolar xalq ommasini og‘dirib, evaziga hokimiyatlarini mustahkamlab olganlari holda, keyinchalik butun ma’naviy hayotga ham kirib bordilar. E’tiqoddan xalqni ajratishga urindilar. Badiiy adabiyotda ham faqatgina sho‘rolarning “ilg‘or g‘oyalarini”ni kuylashga majbur eta boshladilar. Bu yo‘ldan yurmaganlar esa “so‘l yo‘lovchilar” deb adabiyot yo‘nalishidan chetlashtirishga harakat qilib imkon qadar tahqibga ola boshladilar.

XX asr o‘zbek lirikasidada dastlab(asrning 20-30-yilarida) quyosh obrazi o‘lkada yuz berayotgan keskin ijtimoiy-siyosiy kurashlar fonida berildi. Bunday o‘lkadagi bo‘g‘ib tashlangan erk taqdirini badiiy ifodasi qator ijodkorlar erk, ozodlik, o‘zlari intilgan chin ma’nodagi haqiqati sifatida quyosh obrazi talqini aks etdi. Shoirlar tomonidan quyoshga xos tabiiy

⁸ Karimov N.va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O‘qituvchi, 1999, 125-bet.

xususiyatlar badiiy muhitda aks etdi. Bu falsafiy-g‘oyaviy uzviylik ijodkor qalb kechinmalari bilan uyg‘unlik kasb etdi. Turli bo‘hronlardan tushkunlikka tushib ketmagan lirik qahramon nur manbai bo‘lgan quyoshdan ruhoniyl madad oladi. Quyosh o‘ziga xos ma’naviy-mahrifiy komillik, ruhiy ehtiyoj, muqaddaslik, orzu kabi ramzlarning uyg‘unlashgan obrazi sirasida gavdalandi, badiiy muhitda chuqur falsafiy-g‘oyaviy uzviylik asosida lirik asar badiiy mantig‘ining asosi – yadrosiga aylandi. Bu jarayon quyoshning turli holatlarda tasvirlanishida o‘z ifodasini topdi.

Quyosh insonlarga moddiy nur barobarida ma’naviy nurning asoschisi hisoblanishi badiiy adabiyotda o‘zining lirik talqinini topgan. Agar osmonda quyosh to‘silib qolsa bu borliqning zulmatga cho‘mishiga olib kelganidek, ma’naviy quyosh g‘arq bo‘lishi xurofot va johillikka g‘arq bo‘lishga sabab bo‘ladi.

XX asrning 20-yillarda elimizning erksevar, ongi uyg‘oq, siyosiy xushyor farzandlari o‘lkaga yaqinlashib kelayotgan qora bulutlarni payqay olishdi. Ertangi quyoshsiz kelajakning oqibatlarini anglab yetib, shunga xalqni ogoh etishga jazm etdilar. Badiiy yuqori pafosda qalblarida kechayotgan tug‘yonlarni she’riy satrlar orqali xalqiga yetkazishga intildilar. Shunday istehdodli yurt o‘g‘lonlaridan Usmon Nosirning ijodida quyosh obrazi ushbu vazifani lirik yechimda ifoda etganligini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. E’tibor qilamiz:

*Jim!.. Ufqdan botar quyoshni
Shart kesilgan boshga o‘xshatdim.
Parcha-parcha kuygan shafaqlar
Tirqiragan qonni eslatdi!
(Usmon Nosir. Monolog.)⁹*

Shoir tomonidan chizilgan lirik manzara– lirik peyzaj satrlarni o‘qish jarayonida darhol ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Go‘yoki har kungidek

⁹ Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. Birinchi tom. she’rlar. Toshkent, G‘.G‘.nashr., 1969

quyoshning botishi holati, ya'ni tabiiy hodisa tasvirlangandek tuyuladi. Ammo obrazli ushbu tasvirning badiiy kodlarini yechishga kirishilsa, chuqur ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-g'oyaviy masalalar aniq ko'tarilganligini tushunib olish mumkin bo'ladi. Lirik qahramon ruhiyatida yuz berayotgan psixologizm badiiy ruhiyatga uyg'unlashib ketadi. Lirik qahramon tasvirleyotgan manzara shunchaki atrofimizdagi tabiat manzarasi emas, balki vatan deb atalmish muqaddas go'sha uzra sodir bo'layotgan voqealarning badiiy ifodasi. Badiiy daragi ekanligi oydinlashadi.

Satrlardagi so'zlarga e'tibor qilamiz: *“ufqda botayotgan quyosh”* — quyosh shunchaki quyosh emas, botayotgan quyosh. Quyosh obrazi ramzida erk, ozodlik mujassamligi keyingi satrlarda oydinlashadi *“shartta kesilgan bosh”* jumalari o'quvchining ko'z oldida muthish qotillik manzarasini keltiradi. Jallod tomondan bechora mahbusning boshi tanasidan judo etilishi. Uning panjmurdasining boshsiz qolib yerga uzala tushishi. Atrofga uning tanidagi qonning sochilib ketishi *“parcha-parcha kuygan shafaqlar, tirqiragan qonni eslatar”* satrlari orqali ushbu fojiani kinofilg'mdek ko'z oldiga keltirib qo'yadi.

Shoir tomonidan qalamga olingan lirik makondagi hodisalar peyzaj lirikasidan ko'ra ijtimoiy hayot manzarasi manzarasini tasvirleyotganligi ma'lum bo'ladi. Quyosh va bosh tushunchalarining sinonim tushunchalar sifatida qo'yilishi shoir tomonidan ilgari surilayotgan badiiy g'oyani yanada muvofiqlashtirishga sabab bo'ladi. Quyosh o'zi kimning boshi sifatida talqin qilinmoqda. U shaxsning boshimi? Bunga javobnin ham sheshhriy satrlarning keyinida javob kelib chiqadi:

Parcha-parcha kuygan shafaqlar.

Shafaqlar qaerda bo'ladi. Ufqda!

Ufq o'zi nima bu yurtning sarhadrari. Bu yurt gavdasining shakli sifatidagi talqin ekanligi quyosh obrazi bu yurtning, Vatanninng boshi ma'nosida badiiy talqin etilganidan dalolat beradi. Mana shoirning badiiy maqsadini yoritishda quyosh obrazi qanday chuqur falsafiy maqsadda

qoʻllanganligini koʻrish mumkin. Quyosh erk timsolida, hurlik timsolida , usiz oʻlka zulmatga choʻmishidan qattiq iztirobdagi lirik qahramon timsolidagi shoir oʻzining dardli soʻzlarini satrlar boʻylab ifodalashga intiladi.

Quyoshning botish tabiiy holati oʻsha davr shoirlarining badiiy talqinlarida oʻlkadagi erkning, ozodlikning botishini talqni sifatida qalamga olinadi. Usmon Nosirning ijodida asosiy tamoyillarga aylangan bu holatni koʻplab uchratishimiz mumkin:

Erki qulfdir, hayoti qulf, bor xudolar qulf –

Kosasida suv yoʻq, quruq xaltasi – non yoʻq.

Botayotgan quyosh kabi rangida qon yoʻq.

(Usmon Nosir “Nil va Rim”)¹⁰

Quyosh botgan ertasiga albatta chiqishi kabi tabiiy jarayon badiiy asar mantigʻiga singdirilishi orqali davr lirikasidagi badiiy mavzuning koʻrinishi tusini oldi. Bu quyosh nuridan, uning qayta porlashidan umidini uzmagan, u botgan boʻlsa-da, nurlari behuda ketmaganligini tiyrak nigohi bilan tafakkuriga muhrlashga ulgurgan lirik qahramonning “zulmat” kuchlariga murojaati holatida aks etadi. Nur obrazi xoh lirik qahramon qiyofasida, xoh badiiy kompozitsiyaning bir unsuri sifatida ishtirok etmasin, har jihatdan quyosh obrazi sheʼrning badiiy-estetik quvvat manbai boʻlib xizmat qilaveradi.

Quyosh obrazi ertangi sodir boʻlgusi muqarrar erk va hurlik ramzida namoyon boʻladiki, ijodkor buni chin ishonch bilan taʼkidlashga botina oladi:

Enggan qoʻshin boshligʻidek gerdayib

Botgan quyosh bulutlarning ostiga

Bosh koʻtarib chiqmoq uchun tirisha...

(Choʻlpon. “Tortishuv tongi”. T., 1920.)

Yoki

Chiqadigan quyoshni siz behuda

¹⁰ Oʻsha kitob, 123-bet.

Etak bilan to'smoq uchun tirishmang.

(Cho'lpon. "Tortishuv tongi". T., 1920.)

Erkinlik, hurlikka parallel holatda mohiyatini ifodalab kelgan quyosh obrazi tabiiy xususiyatiga xos aks ettirishi badiiy g'oya dinamikasiga quvvat bag'ishlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Quyosh botgan bo'lsa-da, nurlari behuda ketmaganligini lirik qahramon tiyrak nigohi bilan tafakkuriga muhrlashga ulguradi:

So'lg'in bir kulish

Otib otib qochadi

Ba'zi vaqt quyosh.

(Oybek. Qish ko'rinishlari.)

Quyosh og'di ufqdan,

Bir to'plam olov sochin

Ilib qoldi o'rmonlar.

(Oybek. Onlar.1929.)

Og'ir-og'ir qanot qoqib,

Uvalardan qushlar uchdi.

Tog'-toshlarga chechak taqib,

Ufqlarni quyosh quchdi.

Keng qirlarning erkin yeli

Chechaklardan o'pish oldi.

Buloqlarning erka tili

She'r so'ylab, nag'ma choldi,

Toshdi menda sevgi, amal.

Uzoqlarda yulduz porlar.

Bu oqshomning ruhi go'zal,

Quchog'ida ko'ngil yayrar.

(Oybek. "Quyosh botarkan"1925.)

Yoki

Botdi quyosh — qiz,

Yondi uzoqda

Atlas etagi.

Ko'kda bir yulduz

Kuldi shu choqda...

Oqshom chechagi!

Engil shamollar

Tentirab qoldi

Ko'cha-ko'ylarda.

Mayin ro'mollar

Kabi sudraldi

Oq bulut ko'kda.

Bahorning nozik,

Ipak nafasi

Etishdi qonga.

Tarnovdan «tik-tik»

Tomchi pardasi

Uchdi har yonga...

Ko'zimda qotgan

Dard qanotlandi,

Yo'qlikka uchdi.

Qalbda uxlagan;

Nashha uyg'ondi,

Ko'klamni quchdi,

(Oybek. "Bahorning kelish"i1929, aprel)

“Oybekning «Cholg'u tovushi»dagi

Qop-qorong'i, keng bir o'rmon ichida

Hayron bo'lib, yolg'izgina turardim.

*O‘rmon ko‘kin qora, qalin bulutlar
Qoplagandi, quyosh nuri tushmasdi»*

tasvirida esa tahlikali sokinlik egallagan o‘rmon ham bulutlar og‘ushida, xush tovushli qushchalari tark etgan. Ma’lumki, yuqoridagi satrlar yaratilgan davrda bolg‘sheviklar endigina oyoqqa turib, qonlar to‘kish evaziga o‘zining mustamlaka hududlarini kengaytirayotgan edi.”¹¹ Obrazning bunday erkinlik, hurlikka parallel obraz sifatida gavdalantirilishi o‘z navbatida tabiiy xususiyati ma’naviy olam munosabat ko‘lamida badiiy g‘oya dinamikasiga quvvat bag‘ishlaydi:

*Ul ketgach, kun chiqar yorug‘lik sochib,
Undan-da so‘raymen sening to‘g‘ringda.
(Cho‘lpon. “Go‘zal”.)*

*Yuksaklarda quyosh– oltin bayrog‘ing.
(Oybek. “Dengizga”.)*

Quyosh badiiy mantiqning ifoda markazi bo‘lib yaxlitligi bilan badiiy g‘oyani nurlantiradi:

*Oltin yuzin go‘zal quyosh ham ochmish.
(Oybek. “Oltin qo‘ng‘izga”.)*

Quyosh obrazi baxt, saodat ramzi sifatida talqin etiladi:

*Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki, qishlarida shivillar bahor,
Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa, quyosh sog‘inar...
Bir o‘lkaki, g‘ayratidan asabi chaqnar.*

(Oybek. “O‘zbekiston”)

¹¹ Sabirdinov Akbar G‘afurovich. Oybekning poetik mahorati. Fil.fanlari doktori ilmiy dar. olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent, 2007. B–43.

Lirik qahramon ruhiy olami tabiat manzarasi bilan parallel tasvirini topadi. Bunda quyosh obrazi lirik qahramonning ruhiy madadkori sifatida talqinlanadi:

*Har bahor bilgisiz sag‘onam
Gul bo‘lib ochilsa va quyosh
Silasa yomonmi? O‘ylayman:
Yuzimda titrama, tabassum...*

(Bo‘sh kunim bog‘ma-bog‘)

Quyosh timsolida ma’naviyat nur manbai ramzi keltirilishii o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos bosqichga ko‘tarilishini Oybek ijodida kuzatamiz.

Qadimgi Yunon miflaridan ma’lum bo‘lgan insonlarga olovni xudolardan o‘g‘irlab keltirib bergan Prometayga bag‘ishlab yozilgan “Prometey she’rida” buning yorqin misolini kuzatamiz:

*Qalb emas bir dengizdi buyuk sevgi, nur
Mavjlanardi, toshardi — ruhingdek qaynoq,
Manglayingning toshida kuch, fikr, g‘urur
Uyilgandi, davrlar silolmas hech choq.
Insonlikka muhabbat mashhalasini
Qudratli qo‘llaring-la quyoshdan yuksak
Ko‘tarding, tangrilarning yoqib kinini,
Erkin boshing bilmadi aslo egilmak!
Ilk boshlading samoga qarshi o‘chakish,
Jahon tunida chaqding ilk dafha chaqmoq.
Jasorat alangasi edi bu yonish,
Ko‘k g‘azabdan silkindi, qaqshadi olchoq.
Gavdangni o‘rab oldi temir ilonlar,
Sen mixlanding tog‘larning qoyalariga...
Bo‘lolmadi qalbingga tangri hukmdor.*

*Ortdi yana g‘azabing quyosh yoviga,
Jigaringni yulardi burgut tumshug‘i,
Iztirobing timsolidir kurash, zafarga.*

Xuddi shunday ruhda Oybek ijodida murojaat shakllarini yana kuzatishimiz mumkin.

Quyosh obrazi bevosita ma‘rifat manbaining shaxs timsolida gavgaldanishi ko‘zga tashlana boshlaydi:

*Oltin misralarga naqshlangan fikr,
Qalbing quyoshidan quyulgan tuyg‘u —
So‘nmaydi, ey shoir, o‘tsa yue asr,
Haykaling singari chidamli, tunj u.
Toshlarni chang qilib uchirar zamon,
Bir uchqun yo‘qotmas she‘ring yolqini.
Bog‘chang bir bahorga hamisha makon,
Sevadi har ko‘ngil, har xayol uni!*

Boborahim Mashrab shaxsida ham quyoshga oid hislatlarni “Mashrab” she‘rida badiiy tasviri chizgilanadi:

*Ana, shoir kelar.., Bir to‘da bola
Uning orqasida ajralmas soya.
Ko‘zlar aks etadi muhabbat, maroq,
Uni bilish qiyin: go‘yo «jufi toq».
Asrlar ko‘rmagan ajib devona.
Oltin tanga tutar qandaydir bir zot,
Piching ila kulib, otar shoir bot,
Tanga allaqayda jaranglar toshda,
Bunday shiralarga qo‘nadi pashsha!
Usiz sehrlidir, rangindir hayot...
To‘xtab u: «Gulxan sol!» deydi birovga,*

O‘zi ko‘p epchildir o‘tin qalovga.

Olovni ham dudni sevadi shoir,

Kaftida cho‘g‘larni o‘ynatar mohir,

Quyosh *jilvasini ko‘rar olovda.*

Mana chekadi u to‘liq zavq bilan.

Demak, XX asrning boshlari o‘zbek lirikasida quyosh o

Shunday qilib, XX asrning boshlariga kelib quyosh obrazi o‘zining g‘oyaviy-estetik funksiyasini o‘zgartirdi. Chunki bu davr ijtimoiy-ma‘naviy ehtiyoj sifatida erk, ozodlik shaxs uchun eng zarur e‘tiqod darajasiga aylangan edi. Shuning uchun XX asrning 20-30-yillari o‘zbek she‘riyatida quyosh obrazi shaxs erkinining ideali erk va ozodlik ramzi sifatida talqin etila boshladi. Buning yorqin namunalarini Usmon Nosir, Cho‘lpon, Oybek kabi zabardast, erksevar shoirlarning ijodlari kuzatamiz.

Bu davr she‘riyatidagi quyosh obrazining ikki ko‘rinishdagi talqinini kuzatamiz: 1) Quyosh obrazining ijtimoiy hayot tasviridagi badiiy talqini hamda 2) Intim lirikada quyosh obrazining estetik ahamiyati.

2. Hozirgi o‘zbek lirikasida quyosh obrazining g‘oyaviy-estetik xususiyatlari.

Quyosh obrazi XX asr ikkinchi yarmida, asosan, o‘zbek lirikasidagi badiiy ifoda an‘anasi qator shoirlar ijodida o‘ziga xos tarzda davomladi. Ayniqsa, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Azim Suyun, Halima Xudoyberdieva kabilar she‘riyatida original talqini topdi.

Turg‘unlik yillari o‘zbek she‘riyatida quyosh obrazi zining an‘anaviy ifoda ramzlaridan yiroqlashdi. Bu obraz ham bevosita sho‘rolarning maddohlik she‘riyatidagi “sho‘raviy dohiylar”ning ramziy obrazi sifatida siyqasi chiqqan obraz darajasiga tushib qoldi.

Ammo bu davrda quyosh obrazini intim lirika satrlardagi ma'naviy ehtiyoj manbai sifatidagi talqini ma'lum darajada o'ziga xos "nufuzini" saqlab qolishiga sabab bo'ldi. Buni Zulfiya ijodi misolida kuzatishimiz mumkin bo'ladi:

Quyosh obrazining tilimizda sinonimlar mavjud bo'lib, ular kun, oftob tariqasida qo'llanadi. Bu qo'llanish holatini she'riy qofiya talabi, ritorik murojaat kabilar ehtiyojidan kelib chiqiladi deb qaralsa ham bo'ladi. Masalan, Zulfiya (Isroilova) ning butunlay oftobga atalgan she'ri mavjud:

*Oftob, sen borlig'im!
 Bir shifoxonada dardli tan bilan
 Tinmoqchi yurak-la yotaman tanho...
 Quvon, yana yorqin tongga yetishding,
 Tundan omon chiqqan joning siylar nur.
 Quvon, derazangdan salom eshitding,
 Juft kabutar sayrar ilk bahorga jo'r.
 Yana ko'zlaringda sen bilmagan kun,
 Hamma kunlaringdan go'zalday go'yo,
 Rangsiz qo'l, yuzingdan o'ynar oftob,
 Ko'rganmiding shunday hayotbaxsh ro'yo.*

*Senga yetgunimcha junjikdi tanim,
 Tomirimda qonlar qoldi g'ildirab.
 Oftob — mening yorqin, sodiq vatanim,
 Ko'zlarimdan sevinch yoshi mildirab —
 Boqaman. O'pkamni yayratar havo,
Quyoshim, men sendan olaman shodlik.
 Ko'zni qamashtirgich nuring dardimga davo,
 Hayot yana go'zal misli ozodlik.
 Mana, oppoq xonam shuhlaga makon,
 Binafsha bo'yiday yayratdi tanim.*

*Oftob! Sen borlig‘im tirik tutgan jon,
Sen yolg‘iz manguga tashlab ketarim...*

Ko‘rinadiki, oftob ya‘ni quyosh timsolida lirik qahramon o‘zining iqboli, baxtini tarannum etadi. Oftob timsolida butun olamning hayotining asoschisiga murojaati kuzatiladi. Ammo bunda chuqur ijtimoiy-siyosiy muammolar o‘z talqinini topmaydi.

XX asrning oxirlarida o‘zlikni anglash, milliy iftixorni taklash yo‘lidagi kuchli urinishlar adabiyot sohasida ham yorqin namoyon bo‘ldi. Quyosh obrazi hayotning asosi borliqning mohiyatini belgilab beruvchi sifatida o‘z ifodasini yaratuvchanlik timsolida an‘anaviy-mumtoz (tasavvufiy) talqiniga XX asrning ikkinchi yarmidan “uchinchi avlod” vakillari tomonidan qaytila boshlaganini qator zabardast shoirlarimizning ijodlarida kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan: quyosh obrazi Buyuk Yaratguvchining timsolida kelishini O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “Bahor” she‘rida yaqqol keltirilishi yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir.

“Uyg‘onish fasli” peyzajidan shoir ramziy foydalanib, chuqur badiiy falsafani yorita boshlaydi. “Go‘zallik”ning, “hayotning ajibligi”ni lirik qahramon kuzatadi va “o‘ziga yelkadosh bo‘lib turgan muzaffar hayot”ni olqishlaydi. Bahor obrazi uyg‘onishi o‘zida majoziylik kasb etishi, uning tabiiy jarayondan ham ziyoda ruhoniylar jihatlaridan ham uyg‘onish fasli ekanligidan dalolat beradi. Uyg‘onish tushunchasi ma‘lum muddat insonning atrofdagi sodir bo‘layotgan jarayonlarga ishtiroksiz, bir joyda harakatsiz fiziologik hayotini davom ettirish holatidan faollik holatiga qaytishini bildiradi. Shoir tomonidan keltirilgan satrlarda ikki jarayon parallelligi anglash mumkin, ya‘ni zohiriy uyg‘onish va botiniy uyg‘onish. Nur taftidan tabiat uyg‘onib bahor fasli sodir bo‘layotgan manzara birinchi planda tursa, uning ortida allohning nuridan ruhiy ko‘zi nurlanib ochilib, uning jamolidan bahramandlikni tushunish mumkin.

She'riy konteks bo'ylab ko'z yugutirish jarayonida undagi so'zlar orqali tasavvurimizda bahor manzarasi ongimizda o'xshash manzaralar inhiqosi qayta gavdalanish jarayoni sodir bo'ladi. O'z tasavvurimizdagi o'sha "bahoriy manzara"ga bog'liq axborot-xotiralarimiz "jonlanib ketadi".

*Ellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin,
Oftob ham yuksaldi – tik kelar quyosh.
Tog'lar ham yuk tashlab ko'taradi bosh.
Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkam,
Terak uchlarida izg'ir mavjudod.
Hatoki tuyg'usiz, chirik xazon ham
Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.
Hovliqma jilg'alar chopar beega.
Qushlar qiy-chuviga to'lmish dala-bog'.¹²*

E'tiborli tomoni, biz tafakkurimizda ushbu manzarani kunduz kungi holati bo'yicha tasavvurimizga keltiramiz. Go'yoki xotiramizga yorug'lik tushib o'sha qismlarini namoyon qilib berayotganga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. Ma'lumki ijod jarayonida ijodkor aynan o'sha jarayonni sodir bo'lish bosqichlari bo'ya aynan o'sha oniy lahzalarda qayd qilib bormaydi va buning umuman iloji ham yo'q! (Xoh u impressionist rassom bo'lsa ham) chunki tabatdagi jarayon o'z maromida to'xtovsiz davom etaveradi. Har qanday badiiy asarni ijodkor aynan o'sha manzara, holat va jarayonga oid bo'lgan o'zining assotsiatsiyalarini qayta ongiy jonlantirish orqali o'zining badiiylik qonun qoidalariga singdirib, sintezlab, so'ngra badiiy asar shakliga keltiradi. Ijodning eng muhim tomoni shuki bularning bari ijodkorning badiiy maqsadi belgilab bergani bo'yicha sodir bo'ladi. SHu o'rinda yana bir savol tug'iladi! Xo'sh, o'sha maqsadning o'zini nima belgilab beradi? Umuman o'sha (har qanday) ijodkor ifodalayotgan, tahrifu tavsiflayotgan hayotni nima belgilab beradi? Uning asl mohiti nimada?

¹² A.Oripov. Saylanma. SHE'rlar va dramatik doston. T.: SHarq, 1996. B–202.

Abdulla Oripovning “Bahor” she’rini kuzatishda davom etar ekanmiz, shoir satrlarida bunga falsafiy javobi o‘z o‘rnida keltirilganligini uchratamiz:

Do‘stlar, nur vasliga tashlaylik nigoh.

SHu buyuk oftobning mukofotini

Ehzozlab qo‘yaylik aytib shukrona.

Dildan o‘chirmaylik g‘amning otini,

Bahor ham baxt kabi axir yagona.

Shoir tomonidan bayon etilayotgan jumlalarida olamdagi hayotning sodir bo‘lishining asosiy jarayoni izohlanmoqda (shunchaki tasvirlangani yo‘q!) shoir “do‘stlar”ga murojaat etyapti. Do‘st odatda insonning o‘ziga: ruhiyati va dunyoqarashiga yaqin odamlardan iborat o‘ziga xos guruh hisoblanishini inobatga olsak, lirik qahramon o‘zining ushbu hammaslamlarin nur vasliga nigoh tashlashga dahvat etmoqda. Shoir nur so‘zi bilan vasl so‘zini qo‘llash orqali ikki parallel tushunchani bir lirik makonda qurishga muvaffaq bo‘ladi. Zohiriy ko‘rinish ilohiy botiniy manzaraning etagida o‘z tasvirini topadi. Shoir e’tirof etayotgan “*Shu buyuk oftobning mukofotini*” anglab yetish (oftob – quyoshning sinonimi sifatida qo‘llanilgan – Z.T.) hayotning asosida quyosh turganli va zikr etilayotgan shu quyosh aslida Yaratguvchining timsoli ekanligi anglashiladi.

Halima Xudoyberdieva she’riyati juda ko‘p jihatlari bilan quyosh obraziga faol murojaat shakllarining mavjudligi bilan e’tiborlidir.

Obrazning asosiy ko‘rinishi asr boshida Usmon Nosir, Cho‘lponlar ijodidagi bosh mavzu erkinlik – mustaqillikni talqin etuvchi sifatida yana adabiyotimiz uzra ko‘rindi:

Uyg‘onar Turkiston, Uyg‘onar dunyo,

Porloq umidlarga to‘lib kun chiqar.

(*Rauf Parfi. Uygʻon Turkiston...*)¹³

Quyosh obraziga lirik qahramon timsolida komillikni ifodalash vazifasi topshirildi:

*Qachon uygʻonadir xaloskor Daho,
Bir jahon quyoshga chulgʻanib kelur.*

(*Rauf Parfi. "Siyovush"*)¹⁴104-b.

“Demak, odamzod hali oʻz orzusiga erishgani yoʻq. Xali uning ongli, ulgʻayotgan hayoti endi-endi boshlanib kelayotir. Buni tushunib yetishi har bir odam (indvid) Buyuk Uygʻonishga avvalo, oʻzini oʻzi uygʻotib, keyin oʻzgalarning uygʻonishiga yordam berib oʻz hissasini qoʻshmogʻi judayam muhim bunday Xaloskor Daho bizning har birimiz bagʻrimizda uxlab yotgan boʻlishi mumkin.”¹⁵ Quyosh insonni komillika yoʻl koʻrsatuvchi, uni qoʻllab quvvatlovchi, Xaloskor Daholarni uygʻotish qudratiga qodir cheksiz harorat manbaidir. shu cheksiz koinotda ona zaminni isitib, uni hayot bilan tahminlayotgan Quyosh bu cheksizlik asro tanho insonni maʼnaviy olamini ham nurafshon etguvchidir.

“Sheʼr cheksizlikning chekida tugʻilgan dunyo. Shoir koʻnglini oʻrtagan ogʻriqli soʻroqlarga voqelikdan, jamiyatdan javob izlaydi. Muayyan qiyoslar, obrazlar shu tariqa yuzaga keladi. Xususan, shaxs erki, koʻngil hurriyati odam bilan birga tugʻiladi. Erkinlik boy berilgan joyda fojia yuzaga keladi. Baxtni poydor etish ham, baxtsizlik chohiga yuz tuban yiqilish ham ruhning nechogʻlik uygʻoqligi, ruhoniy saodatiga bogʻliq.”¹⁶

Lirik qahramon “ruhida tugʻilgan” quyoshning maʼrifat nurlaridan bahramand boʻladi.

*Yonar, erirgunohkor bardosh
Doʻzaxlarning shundoq yonida...*

¹³ Rauf Parfi. Soʻnggi vido. Toshkent, 2006, B–14.

¹⁴ Oʻsha kitob. B–104.

¹⁵ Ulugʻbek Hamdam. Ulugʻ, tangrim seni achchiq sogʻindim. Soʻzboshi. Rauf Parfi. Soʻnggi vido. Toshkent, 2006. B-9

¹⁶ N. Rahimjonov. Mustaqilik davri oʻzbek sheʼriyati. T.; Fan, 2007, B–100-101.

*Tug‘iladi ruhimda quyosh –
Hayot-mamot jarayonida.*

(U.Azim. Kechalari yurak sanchadi, 219-bet)

Mangu nur sochuvchi quyosh jonlantirish orqali insonga xos xatti-harakatlar bilan ijtimoiy hayotga parallel qo‘yiladi, kutilayotgan ma’lum bir badiiy voqelikka tayyorgarlik manzarasini yaratatish jarayoni yuzaga chiqarishda xizmat qiladi, ijtimoiy voqelikni aks ettiradi.

Quyosh kular, kular hayot

(Rauf Parfi. “Bormi,bahorim..”24-bet)

Kechki quyosh turmaklar sochin,

Jozibali bo‘lar ertaga!

(Rauf Parfi. “Kunduz o‘yga cho‘mar...”12-bet.)

Ko‘rinadiki, nur mavjudligi bilan lirik qahramonning umidbaxsh hayotsevar qarashlari majassamligi namoyon bo‘lib keladi, ertangi kunning porloqligiga, nurliligiga qathiy ishonch baralla oshkor etiladi.

Oftob o‘ylagandi pok niyat bilan

(Shavkat Rahmon. “Oftob va oftob nurlari hiqida afsona”.)¹⁷

Lirik qahramon o‘zi orziqib kutgan quyoshga erishishdan qalbi toshiqadi:

O‘, mana nihoyat, bu kun ulug‘vor

Quyosh tog‘lar osha ko‘rsatdi jamol.

(A.Suyun “.Balki...”)¹⁸

Qanotlarim erkni sog‘ingan,

Quyosh, sen ham emassan yetim...

(U.Azim. Moviy xavo to‘lqinlarida.)¹⁹

¹⁷ Shavkat Rahmon. Saylanma. T.: SHarq, 1996. B–234.

¹⁸ Suyun A.. Saylanma. T.: SHarq, 1996, B–199.

¹⁹ Azim U.. Saylanma. T.: SHarq, 1995, B–38.

Quyosh haqiqat ramzini ifodalaydi:

Yaratguvchining nuri karami quyoshda aks etishi o‘z ifodasini topadi:

Ufqlarda quyosh

Hech gap bo‘lmaganday qip-qizarib botar,

Bag‘rida olov bor, ammo zarda yo‘q.

(H.Xudoyberdieva. O‘zimizning bog‘lar.)²⁰

Quyosh tansiq nurini

Sochib-sochib botadi.

(U.Azim.Boychechak.)

Bugun bir porloq quyosh yo‘q, oh

Moziyda... quyoshlar botadir.

(H.Xudoyberdieva. Bu elni jimlar uyg‘otar.)

“Har bir avlod shoirlarining obrazlar tizimi bir-biriga o‘xshamaganidek so‘z san’atkorlarining lirik qahramonlari ham har bir she’rda betakror yo‘sinda fikrlaydi. Ushbu hol ham har bir ijodkor avlodining badiiyat tarixidagi o‘zlik qiyofasini belgilab berish barobarida shoirlarning individual dunyosini tayin etadi.”²¹

Quyosh obrazining intim she’riyatdagi lirik qahramon ruhiy olamini yoritilishidagi badiiy talqinini kuzatish mumkin:

U kulib keladi. u yig‘lay olmas.

Qo‘lini ko‘ksiga qo‘yar. Qo‘li qon.

Menga uqtiradi: “Do‘stim, qo‘rqma, bas,

Bu – shafaq! Ko‘ksimda otayapti tong”.

U kulib ketadi. Tong ota olmas,

U – saxiy. Dunyoga beradi joni.

²⁰ Xudoyberdieva Halima. Saylanma. hilol.uz © Veb studiya | 2010. All rights reserved..SHoira she’rlaridan keyingi misollar ham shu manbadan olinadi.

²¹ Rahimjonov N.. Badiiy-falsafiy tafakkur qirralari.Maqola.SHarq.yulduzi. 2011, № 2, 154-bet.

*Do 'stim, savolim bor, qaytgin bir nafas,
Do 'st, ne qilay quyosh ko 'milgan tongni?*

(U.Azim. SHuhrat Abdurashid xotirasiga. 29-b.)

Ko'rinadiki, quyoshning "ko'milishi" manzarasi lirik qahramon ruhiy dunyosining nozik qirralarini badiiy talqinda paralleligini yuzaga chiqarish orqali shoir o'z ko'nglidagi chuqur ayriliq iztiroblarini yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Ma'lumki, Shuhrat Abdurashidov rangtasvirchi musavvir sifatida endigina tanila boshlagan chog'ida sobiq sho'rolarning mashhum siyosatlari tufayli Afg'onistonga qilingan harbiy amaliyotlar chog'ida xarbiy askar qo'shin safida halok bo'ladi. Rassom bilan shaxsan tanish, do'st bo'lgan shoirga bu voqea qattiq iztirobli ta'sir ko'rsatadi va o'z tuyg'ularini quyoshning "ko'milishi" timsolida badiiy ifodalab beradi.

Quyosh obrazi lirik qahramonning qalbidagi yaqini timsolida talqqin etiladiki. Bunda u tabiiy xususiyatlariga xos parallel ravishda lirik talqinda poetik g'oyani yoritishga xizmat qiladi:

Qayga borayapsan, muncha shoshmasang?

Mashriqda miltirab sochdingu ziyo,

Bag 'rimga nuringni to 'yib bosmasdan

Mag 'ribda qizarding va bo 'lding ado.

Shunday badiiy usulni intim mvzuda lirik qahramonning yor obrazini ifodalashdagi badiiy talqinini ham kuzatish mumkin bo'ladi:

Sochin yoyib falakda, sho 'h-shahn

Porlab quyosh – Barchinday bir qiz.

(U.Azim. Ucholmasdan qoldi jonu tan... 42-bet)

Quyoshning ifoda maydoni individ maydoniga muvofiqlashadi:

Quyosh juda erta botdi, qiladi alam.

Nomozshom gulday so 'ndi tez bugungi kun.

(H.Xudoyberdieva. Quyosh juda erta botdi...1975)

*O, sevgim, boshimda oltin toj eding,
Quyoshdek porlading siylab har qachon!*

(A.Suyun.Faryod. 197-b.)

Quyosh obrazi shaxs tuygʻulari tomon ixchamlashagan maʼno-mohiyat kasb etadi. Tashxis qoʻllangan quyosh obrazi lirik qahramonning intim tuygʻulari uygʻunlashagan uygʻunlashagan dahldor obrazga aylanadi, maʼrifat, botiniy orziqishni tarqatuvchi zohiriy najot boʻlib gavdalanadi:

*Portlay dedi nogahon koʻksim,
Koʻzlarimga urildi quyosh.
Sen nedandir ogʻrinib, oʻksib,
Oʻltirarding koʻtarolmay bosh.*

(U.Azim.Kafechalar, nochor kulgular...74-bet)

Yoki quyosh obrazi shaxs tuygʻulari tomon ixchamlashagan maʼno-mohiyat kasb etadi. Lirik qahramonning intim tuygʻulari olamiga dahldor obrazga aylanadi:

*Quyosh meni qaytib topolmas kelganda qaytib,
Koʻz yosh toʻkar eslab meni yoʻqotganini.*

(H.Xudoyberdieva. Quyosh juda erta botdi...1975)

Yoki

*Endi quyosh quyosh emas. Men uchun tamom,
Uni tunga almashtirdim– shu boʻldi qaror.*

(H.Xudoyberdieva. Quyosh juda erta botdi...1975)

Masalan, Usmon Azimning “Mangu umid” sheʼrida quyosh obrazi lirik qahramonga nisbatan qoʻyiladi. Tuygʻularga, qalbi otashlikni quyoshga barobar etadi:

*Olam oqqanida sovuqqa toʻlib,
Yugurdim. Shavqimdan qizidi badan.*

*Yugurdim yurakning jahdiga ko‘nib,
 Oyog‘imga to‘kdi maysalar shabnam.
 SHundoq kirib bordim quyosh ichiga,
 Yaralish onidan shoshib, betartib.
 Otashi ishondi mening kuchimga —
 «Birga yonaylik» deb ayladi taklif.
Quyosh bo‘lmadimmi? O‘zimman aybdor.
 «Faqat nur yashasin» — xayolga to‘ldim.
 Takdirga tan berib turmadim. Oshkor
 Nurni soyasidan ajratmoq bo‘ldim.
 Bir hovuch kuldirman hozir. Yov shamol
 Jismimni sovurib aylar tajovuz.
 «Soyaning borligi dunyoga malol», —
 Men o‘sha gapimni aytaman hanuz.
 Uchaman zarrayu zarra. Beqadr
 SHuhlalar olamga sokin quyilar.
 Ortinda yugurgan soyam baribir
 Meniki emasday tuyular...*

(Usmon Azim. *Mangu umid.*)²²

Quyosh lirik qahramonning qalbi. Uning orzu-umidlari timsolida peyzaj vositasida ifodalanadi:

*Quyosh
 Kun botdi -
 albatga, kechaga botgan.
 Tong otdi —
 albatta, zulmatni otgan.
 Kun chikdi —
 gul kabi ko‘karib chikdi —*

²² Usmon Azim. Fonus.Toshkent, 2010,51-bet

*albatta, quyoshni
 ko‘tarib chikdi.
 Quyoshni uchirdi
 dahshat shamollar.
 Albatta, tilimda
 qadim savollar.
 Albatga, jonimni
 so‘ramay oldi...
 Mendan bu dunyoga
 savollar qoldi.
 (Usmon Azim.)²³*

Quyoshning so‘nmasligi, “ko‘hna izidan” ko‘rinib, nur sochishda davom etaverish jarayoni badiiy talqinda ezgulik abadiyligiga umid va ishonchni ifodalaydi:

*Oftob ham ko‘rindi ko‘hna izidan
 Va boshlab yubordi dilbar ertagin.
 (A.Suyun. Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi... 117-bet)*

Ko‘rinadiki, Nur obrazining zohiriy ko‘rinishi poetik taassurotga jalb qilgani holda botiniy tushunchalar sari shuurni yetaklaydi, tafakkurni serqatlam, tagdor ma‘no –mohiyat jabhalari tomon yo‘naltiradi. “so‘qir ko‘z”ga “bezatilgan” Nur bilan “ignadek nur”ning hajmlari garchi hajmlari turlichadek tuyulsa-da, tafakurda ularning hajmi emas, mohiyati zohiriydan botiniy tomon keng va sertarmoq estetik hamiyat kasb etib keladi. Shoirning quyidagi she‘rlari buni badiiy talqinidir:

*Umr deganlari zahmat, sabotdir,
 Umr deganlari ishonch, sadoqat.
 Ko‘kda oy, yulduzlar kirganday so‘zga
 Aziz boshingizga sochar nurini...
 Men oy shuhlasini tilayman Sizga.*

²³ Usmon Azim. Fonus.Toshkent, 2010,51-bet

(Rauf Parfi. "Alyor.")²⁴

Quyosh obrazi inson komilligi ma'nosida o'z talqinini topadiki, bunda lirik qahramonning quyoshga talpinishidan keng ma'naviy-estetik mohiyat kasb etadi:

Quyoshga eltar yo'lda qolg'ay mening izlarim.

(H.Xudoyberdieva. "Ko'klam eritayotir.")

Darvoqe, bu maysa, ha, yangi maysa –

Quyosh, uni o'zing ardog'ingga ol.

(Halima Xudoyberdieva. Yangi ungan maysa.)

Men qaytaman quyosh yo'lidan...

Qanotlarim erkni sog'ingan,

Quyosh, sen ham emassan yetim...

(U.Azim. Moviy havo to'lqinlarida.)²⁵

Quyosh obrazi abadiylik timsolida ijtimoiy falsafani yuzaga chiqarishda vosita bo'lib xizmat qiladi:

Unda quyosh kabi lovullab faqat

Ona O'zbekiston suvrati qolur.

(U.Azim. Ko'nglim qolgani yo'q yorug' olamdan.)²⁶

Lirik qahramon quyosh "buyuk"ligini e'tirof etib, undan taraladigan "nur vasli"ga e'tibor berib, shukrona aytib, ehzozlashga chaqiradi. Nur manbai bo'lgan quyoshning moddiy xususiyati estetik uyg'unlikda ifoda etiladi:

Shu buyuk oftobning mukofotini

Ehzoqlab qo'yaylik aytib shukrona.

(A.Oripov. Bahor.)²⁷

²⁴ Rauf Parfi. So'nggi vido. T.: 2006.B-59.

²⁵ Usmon Azim. Saylanma. T.: SHarq., 1995, B-38.

²⁶ Usmon Azim. Saylanma. T.: SHarq., 1995, B-41.

Shoirning “Oftob va oftob nurlari hiqida afsona” she’rida nurga oid bo’lgan obrazlar vositasida badiiy g’oya ifodasini topgan:

Milyonta yildirkim
Chaqnab to’satdan.
Bulutlarga do’nar abadiy qorlar.
Nurga g’arq bo’lib,
Chayqalgan yerga
Oftobning bag’ridan tushdi tulporlar.
Gurkirab yuksalgan bir yashil olam
Yashil ko’lkalarin tashlar qirlarga.
Cho’ng tog’lar uyg’onar,
Sayraydi suvlar,
Dunyo to’lib ketar yorug’ sirlarga.
Oftob salobat-la,
Chehrasi yashnab,
Boqarkan samoviy toqdan pastlarga,
Nogoh bir chayqaldi bor koinotni
Titratgan dahshatli o’tkir saslardan.
Ne ko’z bilan ko’rsin,
Qalayi nigoh
Ham temir chovutli qahhor sayyodlar
Tinsiz arqon tashlar.
Ko’kka sapchiydi
Bir oqimday aylangan otlar...

Nahort kechagina g’orlar tubida
Bir tomchi harorat
Bir tomchi shulha
So’rab yolborganlar,

²⁷ Oripov A.. Saylnma.T.: SHarq, 1996, B-204.

Buyuk Oftobni
Koinot qahridan chorlagan shular.
Oftob o'ylagandi pok niyat bilan
Bag'ridan berarkan mo'l-ko'l harorat:
“ Hurlikka intilsin, tulporlarimda
Go'zal olamlarga qilsin sayohat” .
Istagi pok edi,
Ammo qasamxo'r
Sayyodlar qo'lida aylanar arqon.
Zaminga yaxshilik, nurday yoyilgan
Tulporlar izidan yolqinlanar qon...
Makonlar xor bo'ldi,
Minib otlarni
Uchqun shamoldan ham jadal yelarkan.
Ko'hna keklarini tug'day ko'tarib,
Bir-birin shavqatsiz qirdi elatlar.
Oftob aylanarkan,
Chetlab o'tadi
Zaminga uyulgan muz tog'larni...
Tashlab ketolmas buyuk bag'ridan
Abadiy uzilgan tulporlarini.
Tulporlar,
Yollari tirik alanga,
Sovuq yaraqlagan ko'zlari g'amgin.
Bu cheksiz zamindan buyuk oftobga
Qaytmoqchi bo'lganday chopadi mangu.
Necha ming yildirkim
Oftob izidan
Tinimsiz talpinib chopadi otlar.
Oftob o'sha-o'sha,

*Zamin o'sha-o'sha,
Tinimsiz almashar faqat sayyodlar...*

(234-b.)

Quyosh obrazi Shavkat Rahmon ijodida ko'plab uchraydi. Nur manbai sifatida shoir nazdida Quyosh obrazi uning ma'naviy yorug'lik ma'nosini ifodalashda unumli qo'llanadi:

*Shuncha bir qirg'oqdan go'yo hoziroq
Uzilib tushganday Momo Quyoshdan
Bolar qiyqir di,
Oq ko'ylaklarin
Bandi qushlarday silkitib boshda. (Amudaryo qirg'oqlari)*

*Isyonkor tutzorlar oralaridan
CHIqar afsonaviy jangchilar kabi
Nigohlari o'tkir,
Odimi shahdam,
Barvasta, qoracha yigitlar safi.
Qishloqqa kirishar,
Momo Quyoshning
Eng so'nggi nurlari to'kilib yotgan
Guzardan o'tarkan, qiz kuzatganday
Suqlanib qarashar suvlangan otga.*

(“Aravon ko'rinishlari”220-b.)

Ko'rinadiki, davr ruhiyati lirik qahramon hatti-qarakatlari orqali ijtimoiy hayot manzarasi o'z aksini topadi. Bir so'z bilan aytganda zulmatni yoritib, borliqni namoyon qilib turadigan quyosh hamisha barchaning ko'zlarini munavvar etib, najot bo'lib keladi:

*Lov-lov yonayotir quyosh – ul najot,
Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog‘.
Shunday yuragimda tovushsiz faryod.
(Rauf Parfi. Muhabbat.63-bet.)*

Ma’lum bo’ladiki, nurning asosiy manbai bo’lgan quyosh obrazi hozirgi o’zbek lirikasida chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-falsafiy, individual–estetik holatlarning badiiy talqinini o’zida mujassamlashtirgani holda namoyon bo’ladi.

XX asrning boshlari, xususan 20-yillari o’zbek she’riyatida erk, ozodlik va ma’rifat timsoli sifatida badiiy talqin etilgan quyosh obrazi chuqur ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning badiiy inhikosini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etgan bo’lsa, sho’rolar tuzumining tanazzulga yuz tuta boshlashi davrlaridan va mustaqillik yillarida quyosh obrazi o’zining yangicha badiiy talqinlarini topa boshladi. Ijodkorlar turg’unlik yillarida “qizillashib ketgan” quyosh obrazidan umuman yangicha, bunyodkorona badiiy g’oyalarni ifoda etishda qo’lly boshladilar.

Bu davr she’riyatining asosiy xussiyati sanalmish 20-yillar she’riyatining an’analari qaayta jonlantirish jarayonida quyosh obrazi ham o’ziga xos qaytadan o’z holiga qaytdi. Usmon Nosir, Cho’lpon she’riyatining nafasi Rauf Parfi she’riyati satrlarida qaytadan jonlandi va sho’rolarning chirkin mafkuralariga o’zining erklik, ozodlik nurlarini socha boshladi. Abdulla Oripov she’riyatida quyosh obrazi o’ziga xos oybekona talqiniga yaqin jonlandi. Halima Xudoyberdieva she’riyatidagi quyosh obrazi o’zining chuqur ijtimoiy-ma’naviy muammolarni badiiy talqinidagi xususiyati bilan o’zbek she’riyatining taraqqiyotida muhim rol o’ynadi.

Shunday qilib hozirgi o’zbek she’riyatida quyosh obrazi o’zining an’anaviy shakllardan bahra olgan zamonaviy badiiy talqiniga ega bo’ldi.

Xulosa

Badiiy adabiyotning mohiyatini ifoda etuvchi obraz masalasi adabiyotshunoslikda keng tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. SHu jumladan quyosh obrazi ham o‘ziga xos badiiy-estetik, ma’naviy-g‘oyaviy ijodiy idealarni ifoda etishda qo‘llanishi bilan badiiy adabiyotda o‘z o‘rniga ega. Adabiyot shakllana boshlabdiki, ilohiy ideallardan badiiy idealga aylanib o‘ziga xos simvolik obraz darajasiga yetgan quyosh obrazi tadqiqot uchun bugungi kun adabiyotshunosligida dolzarbdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yuritgan ushub bitiruv-malakaviy ishi doirasidagi tadqiqotimizda quyidagi umumiy xulosalarni keltirishimiz mmkin bo‘ladi.

1. Quyosh obrazi diniy-e’tiqodiy doirada shakllanib, yozma adabiyotga ma’naviy-ruhiy ideal timsolida kirib keldi.
2. Quyosh obrazi mumtoz adabiyotimizda insonning ulug‘ idealining ramzi sifatida – yor timsolida aks ettirildi.
3. Tasavvufiy she’riyatda quyosh obrazi Alloh timsolini namoyon qildi.
4. XX asrning boshlariga kelib quyosh obrazi o‘zining g‘oyaviy-estetik funksiyasini o‘zgartirdi. CHunki bu davr ijtimoiy-ma’naviy ehtiyoj sifatida erk, ozodlik shaxs uchun eng zarur e’tiqod darajasiga aylangan edi. Shuning uchun XX asrning 20-30-yillari o‘zbek she’riyatida quyosh obrazi shaxs erkinining ideali erk va ozodlik ramzi sifatida talqin etila boshladi. Buning yorqin namunalarini Usmon Nosir, CHo‘lpon, Oybek kabi zabardast, erksevar shoirlarning ijodlari kuzatamiz.
5. Bu davr she’riyatidagi quyosh obrazining ikki ko‘rinishdagi talqinini kuzatamiz: 1) Quyosh obrazining ijtimoiy hayot tasviridagi badiiy talqini hamda 2) Intim lirikada quyosh obrazining estetik ahamiyati.
6. 40-yillardan boshlab quyosh obrazining g‘oyaviy-estetik funksiyasi hukmron mafkura ta’sirida ifoda mohiyati o‘zgardi. Unda quyosh o‘sha davrning mavjud idealogiyaning asosini – partiyasining ramzi sifatida “shiorbozlik davri” she’riyatida ko‘rinishi oldi. Ba’zi o‘rinlarda u sho‘rolar rahnomasi obrazida ham qo‘llanishi sobiq sho‘rolar davrining

maddohlik “qizillashgan” she’riyatining dag‘al unsuri sifatida tarix sahifasida qolib ketdi.

7. Quyosh obrazi faqatgina lirik qahramonning intim dunyosini ifodalashi holatlaridagina sof lirika talablariga yaqin bo‘lgan she’rlarning yaratilishida ishtiroki ko‘rindi. Masalan Zulfiyaning ijodida bunga yorqin misoldir.
8. XX asrning oxirlarida, xususan 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida erksevarlik sabolaridan nafas olishga intilgan qator ijodkorlar avlodi she’riyatimizga yangicha to‘lqin olib keldilar. Ularning she’riyatidagi quyosh obrazi ma’naviy-ruhiy ehtiyoj ideali obrazi sifatida qayta o‘z talqinini topdi. Ayniqsa, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdieva, Usmon Azim, Azim Suyun kabi shoirlar she’rlarida bevosita u xalq erkinigramziy obrazi tarzida ochiq talqini topdi. Abdulla Oripov singari shoirlar ijodida esa u komillik, o‘zlikning quvvatlantiruvchi ilohiy manba sifatida talqin etildi.
9. Mustaqillik davri she’riyatda quyosh obrazi ijtimoiy-ma’naviy funksiyalari yanada konkretlashib, bugungi davr kishisining ma’naviy – ruhiy ehtiyojining, o‘zlikni munavvar etuvchi ilohiy manba tarzida murojaat shakllari kuzatilib kelinmoqda.

Shunday qilib, o‘zbek she’riyatida quyosh obrazi chuqur ijtimoiy-siyosiy, g‘oyaviy-estetik, diniy-e’tiqodiy munosabat shakllarini ifoda etishda qo‘llanib kelinayotgan obrazlar sirasiga kirishi bilan e’tiborlidir.

Bugungi, mustaqillik she’riyatida quyosh obrazi o‘zining ma’naviy-mahrifiy timsollarni ifoda etishi, erishilgan mustaqilligimizning ramziy ifodasi bo‘lib ijdkorlar satrlarida o‘zgacha gavdalanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. Ilmiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008
2. Abdurahmonov A. Navoiy lirikasida nur va soya. FarDU “Ilmiy xabarlar”, 2012, № 1.
3. Belinskiy V.G. Adabiy orzular, T. 1976.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, 2002.
5. Gegel. Sochineniya. Tom 8, M.: 1935
6. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari.T.: 2008.
7. Karimov N., Mamajonov S.va b. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. T. 1999.
8. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Andijon, 2002.
9. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi. Toshkent, 1966.
10. Matnazar Abdulhakim. Nur vasli. Yoshlik, 2010, № 1
11. Mingboeva Dilrabo. Timsolar tilsimi.T.: Yangi asr avlodi. 2007
12. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. Toshkent, 2007.
13. Rahimjonov N.. Badiiy-falsafiy tafakkur qirralari. Maqola. SHarq yulduzi. 2011, № 2,
14. Sabirdinov. A Oybekning she’riy mahorati. Toshkent, Fan, 2005.
15. Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.: 2004.
16. Sulton I. Adabiyot nazariyasi, Toshkent, 1980.
17. Sultonova M. Peyzaj san’ati. –Toshkent, Fan, 1983.
18. Xojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. T.; SHarq, 1999.
19. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, 1995.
20. G‘afurov.I. Lirikaning yuragi.T. 1982.
21. G‘afurov.I.Mangu latofat.T.SHarq nashriyoti, 2008.
22. Hamdam Ulug‘bek. Ulug‘, tangrim seni achchiq sog‘indim. So‘zboshi. Rauf Parfi. So‘nggi vido. Toshkent,2006
23. Homidiy H., Abdullaeva SH., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. Toshkent, O‘qituvchi, 1967.
24. Homidiy H., Abdullaeva SH.. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati.

Toshkent, O‘qituvchi, 1968.

25. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. Toshkent, O‘qituvchi, 1979.

II. Badiiy adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Saylanma. T.:SHarq, 1995.
2. Azim U.. Saylanma. T.: SHarq, 1995.
3. Navoiy. Qora ko‘zim. T: 1990.
4. Oybek. Asarlar. O‘n tomlik. Tom 1.She’rlar. Toshkent, G‘.G‘ulom n.1968
5. Rauf Parfi. So‘nggi vido. T.: 2006.
6. Suyun A.. Saylanma. T.: Sharq, 1996
7. Xudoyberdieva Halima. Saylanma. hilol.uz © [Veb studiya](#) | 2010. All rights reserved.
8. Usmon Nosir. Unutmas meni bog‘im. Toshkent, 1988.
9. Usmon Nosir. Yurak.Toshkent, 1984.
10. Usmon Nosir.Tanlangan asarlar. Birinchi tom. Toshkent, 1969.
11. Hamid Olimjon. Kuychining xayoli. Toshkent, 1979.
12. Shavkat Rahmon. Saylanma. T.: Sharq, 1996.
13. www.lit.uz.
14. www.ziyonet. Kutubxonasi.
15. www.hatib.uz.